
XALQARO UNIVERSITET BILAN HAMKORLIK

Bugun tuman hokimi Bahodirjon Xoliqov Farg'ona shahridagi Koreya xalqaro universiteti (KIUF) rektori Park Jun Xoni qabul qildi. Samimiy muloqot chog'ida ushbu oliygohga Rishtonlik bitiruvchilarni jalb etish masalalarida so'z bordi.

Tuman hokimi Koreya xalqaro universiteti tomonidan iqtidorli talabalarga universitet grantlari taqdim etilganini yuqori baholadi.

Rishtonlik bitiruvchilar uchun uniwersiteti ochiq eshik ekanligini bildirgan Park Jun Xo hamkorlik uchun tuman hokimiga minnatdorchilik bildirdi.

Shundan keyin Koreya xalqaro universiteti va Rishton tumani o'rtasida memorandum imzolandi. O'zaro muloqotda universitet bilan hamkorlik aloqalari yuzasidan muhokamalar o'tkazildi.

2024-06-19 08:30:22